XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Ish haqi. 2024- yil yanvar- sentabr oylarida Navoiy viloyati shahar, tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda. Viloyatda o‘rtacha oylik ish haqi 6 610,9 ming so‘mni tashkil etgan holda, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 10 192,8 ming so‘mni (viloyatning o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 154,2 %), Zarafshon shahrida 9 677,2 ming so‘mni (146,4 %), Konimex tumanida 7 204,6 ming so‘mni (109,0 %), Navoiy shahrida 7 127,8 ming so‘mni (107,8 %) tashkil etgan bo‘lsa, Karmana tumanida 4 692,4 ming so‘mni (71,0 %), Tomdi tumanida 3 828,5 ming so‘mni (57,9 %), G‘ozg‘on shahrida 3 210,5 ming so‘mni (48,6 %), Navbahor tumanida 3 123,0 ming so‘mni (47,2 %), Xatirchi tumanida 2 980,1 ming so‘mni (45,1 %), Nurota tumanida 2 935,2 ming so‘mni (44,4 %) va Qiziltepa tumanida 2 841,8 ming so‘mni (43,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi* (ming so‘mda)



Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023- yil yanvar- sentabrga nisbatan, % da)

ming so‘mda

	2023- yil	*2024*- yil*	*O‘sish sur’ati, % da*
Jami	**5 770,3**	**6 610,9**	**114,6**
Navoiy sh.	6 189,7	7 127,8	115,2
Zarafshon sh.	8 226,8	9 677,2	117,6
G‘ozg‘on sh.	2 793,4	3 210,5	114,9
Karmana t.	4 398,4	4 692,4	106,7
Konimex t.	6 355,2	7 204,6	113,4
Qiziltepa t.	2 650,3	2 841,8	107,2
Navbahor t.	2 819,5	3 123,0	110,8
Nurota t.	2 569,7	2 935,2	114,2
Tomdi t.	3 391,8	3 828,5	112,9
Uchquduq t.	8 673,7	10 192,8	117,5
Xatirchi t.	2 616,2	2 980,1	113,9

**)Dastlabki ma’lumot, kichik tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligi korxonalarisiz.*

2024- yil yanvar- sentabr oylarida Navoiy viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 114,6 foizni tashkil etib, jumladan Zarafshon shahrida 117,6 foiz, Uchquduq tumanida 117,5 foiz, Navoiy shahrida 115,2 foiz, G‘ozg‘on shahrida 114,9 foiz, Nurota tumanida 114,2 foiz, Xatirchi tumanida 113,9 foiz, Konimex tumanida 113,4 foiz, Tomdi tumanida 112,9 foiz, Navbahor tumanida 110,8 foiz, Qiziltepa tumanida 107,2 foiz va Karmana tumanida 106,7 foizga o‘sgani kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

ming so‘mda

	Yanvar-sentabr		*Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da*	
	2023- yil	*2024- yil*	*2023- yil*	*2024- yil*
Jami viloyat bo‘yicha:	**5 770,3**	**6 610,9**	**x**	**x**
shu jumladan:				
Sanoat	8 280,4	9 510,5	143,5	143,9
Qurilish	6 632,5	7 262,1	114,9	109,8
Savdo	2 658,5	3 690,9	46,1	55,8
Tashish va saqlash	4 107,7	4 979,3	71,2	75,3
Axborot va aloqa	6 750,6	7 649,8	117,0	115,7
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	11 419,7	12 766,8	197,9	193,1
Ta’lim	3 010,5	3 376,3	52,2	51,1
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2 855,6	3 235,9	49,5	48,9
Boshqa faoliyat turlari	4 902,1	5 507,6	85,0	83,3

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati (193,1 %), sanoat (143,9 %), axborot va aloqa (115,7 %), qurilish (109,8 %), boshqa faoliyat turlari (83,3 %), tashish va saqlash (75,3 %), savdo (55,8 %), ta’lim (51,1 %) hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (48,9 %) sohalari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Sanoat sohasida 38 ta korxonada 78 671 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 43,8 %) xodim ishlagan bo‘lib, Sanoat sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 9 510,5 ming so‘mni;

Ta’lim sohasida 685 ta korxonada 45 545 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,4 %) xodim ishlagan bo‘lib, Ta’lim sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 376,3 ming so‘mni;

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 48 ta korxonada 20 822 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,6 %) xodim ishlagan bo‘lib, Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 235,9 ming so‘mni;

Savdo sohasida 12 ta korxonada 1 159 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan 0,6 %), xodim ishlagan bo‘lib, Savdo sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 690,9 ming so‘mni;

Qurilish sohasida 16 ta korxonada 4 909 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,7 %) xodim ishlagan bo‘lib, Qurilish sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 262,1 ming so‘mni;

Axborot va aloqa sohasida 6 ta korxonada 593 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,3 %) xodim ishlagan bo‘lib, Axborot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 649,8 ming so‘mni;

Tashish va saqlash sohasida 6 ta korxonada 1 219 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodim ishlagan bo‘lib, Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 979,3 ming so‘mni;

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida 38 ta korxonada 1 930 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 %) xodim ishlagan bo‘lib, Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 12 766,8 ming so‘mni;

Boshqa faoliyat turlari sohasida 310 ta korxonada 24 523 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 13,8 %) xodim ishlagan bo‘lib, boshqa faoliyat turlari sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 507,6 ming so‘mni tashkil etdi.